



IZZAT SULTON NAZARIYOTCHI OLIM SIFATIDA

Bozorboyeva Zuhraxon Mirqo'zi qizi

Farg'ona Davlat Universiteti filologiya fakulteti

zukhraxon182@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Izzat Sultonning adabiyot nazariyasiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Olimning badiiy asar mohiyati, obraz va mazmun uyg'unligi haqidagi qarashlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, uning nazariy fikrlari boshqa yetuk adabiyotshunos olimlar qarashlari bilan qiyosiy o'rganiladi. Maqolada muallifning shaxsiy mulohazalari ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *Izzat Sulton, adabiyot nazariyasi, badiiy asar, obraz, mazmun va shakl, estetik tafakkur, nazariy qarash.*

Аннотация: *В данной статье анализируется вклад Izzat Sulton в теорию литературы. Освещаются его взгляды на сущность художественного произведения, единство формы и содержания. Также проводится сравнительный анализ его идей с концепциями других теоретиков. В статье представлены авторские выводы.*

Ключевые слова: *Иzzат Султон, теория литературы, художественное произведение, образ, форма и содержание, эстетическое мышление.*

Annotation: *This article examines the contribution of Izzat Sulton to literary theory. His views on the essence of artistic works and the unity of form and content are analyzed. The study also compares his ideas with those of other literary theorists. The author's personal reflections are included.*

Keywords: *Izzat Sultan, literary theory, artistic work, image, form and content, aesthetic thinking.*

O'zbek adabiyotshunosligida nazariy tafakkurning rivojida Izzat Sulton alohida o'rin egallaydi. U nafaqat adabiy tanqidchi, balki chuqur nazariyotchi olim sifatida badiiy asarning mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilgan. Uning ilmiy merosi



bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Izzat Sulton badiiy asarni hayotning estetik aks ettirilishi sifatida talqin qiladi.

Izzat Sulton adabiyot nazariyasi haqida shunday fikr bildiradi: „Adabiyot nazariyasi“ning butun mazmuni, pirovardida quyidagi vazifalarga xizmat qilishi lozim: a) o'quvchilarga adabiyotning mohiyati, uning xususiyatlari va taraqqiyot yo'llari haqida ma'lumot berish; b) o'quvchilarni adabiy asar va adabiy hodisalarni mustaqil tushunishga tayyorlash.

Dilmurod Quronov esa “Adabiyotshunoslik lug'ati” kitobida esa adabiyot nazariyasiga quyidagicha ta'rif beradi: “Adabiyot nazariyasi - adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari, jamiyat uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o'rganadi va asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi”.¹

Izzat Sulton va Dilmurod Quronov tomonidan berilgan ta'rif va qarashlar adabiyot nazariyasining mazmun-mohiyatini turli nuqtai nazardan yoritadi, ammo ular o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Avvalo, Izzat Sulton adabiyot nazariyasining amaliy-pedagogik vazifasiga urg'u beradi. Uning fikricha, bu fan o'quvchiga adabiyotning mohiyatini tushuntirish bilan birga, unda mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bu yondashuv adabiyot nazariyasini faqat nazariy bilimlar majmui emas, balki tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin etadi. Ya'ni, adabiyot nazariyasi o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlilchi darajasiga olib chiqadi.

Dilmurod Quronov esa masalaga ilmiy-nazariy tizim nuqtai nazaridan yondashadi. U adabiyot nazariyasini adabiyotshunoslikning asosiy sohasi sifatida ko'rib, uning vazifasi badiiy adabiyotning mohiyati, tuzilishi, rivojlanish omillari va qonuniyatlarini umumlashtirilgan holda o'rganishdan iborat ekanini ta'kidlaydi. Bu

¹ D. Quronov., Z. Mamajonov., M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent. 2010, 11-b.



ta'rifda adabiyot nazariyasi ko'proq ilmiy abstraksiya va qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan fan sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyot nazariyasini to'liq anglash uchun ushbu ikki yondashuvni bir butun holda qabul qilish zarur. Chunki:

Agar adabiyot nazariyasi faqat nazariy qonuniyatlarni o'rgansa, u amaliy ahamiyatini yo'qotadi.

Agar u faqat o'quvchini tayyorlash vositasi sifatida qaralsa, unda ilmiy chuqurlik yetishmaydi.

Demak, adabiyot nazariyasi — bu bir vaqtning o'zida ilmiy tizim (Quronov talqinida) va didaktik-amaliy vosita (Izzat Sulton talqinida) bo'lgan murakkab fan sohasidir. U nafaqat badiiy asarni tushuntiradi, balki insonning estetik tafakkurini, tahliliy fikrlashini va madaniy ongini shakllantiradi.

Adabiyot nazariyasida yana bir ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan mavzu borki, bu to'g'risida ham nazariyotchi olimlar o'zining ilmiy qarashlarini keltirib o'tgan. Bu shakl va mazmun yetakchiligi hisoblanadi. Adabiyotshunos olim D. Quronov quyidagi fikrlarni bildirgan: “Voqelikda mavjud narsalarning bari o'zining tashqi ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga (mazmun) ega. Shu sababli ham «shakl» va «mazmun» kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, ular voqelikni (narsa-hodisani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi. Abstraksiya deyilishining boisi shuki, shakl va mazmun qabilidagi bo'linish shartli, negaki, ular - yaxlit bir narsada har vaqt birlikda mavjud bo'lgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomon. Zero, shakl narsaning biz bevosita ko'rib turgan, his qilayotgan tomoni bo'lsa, ayni shu shakl bizga o'sha narsaning nima ekanligini - mazmun-mohiyatini anglatadi. Masalan, qarshimizda stul turgan bo'lsa, biz uning shaklini ko'ribgina «stul», ya'ni «o'tirish uchun mo'ljallangan moslama» deb ayta olamiz. Stulga xos bo'lgan tashqi ko'rinish uning shakli bo'lsa, mazmuni shu shakl ifodalayotgan «o'tirish uchun mo'ljallangan moslama» ekanligidir. Ko'ramizki, shakl mazmuni ifodalaydi, mazmun esa muayyan shakldagina reallashadi, mavjud bola oladi. Deylik, o'sha stulning shaklini parokanda qilsak - qismlarga ajratib yuborsak, shaklning yo'qolishi



bilan mazmun ham yo‘qoladi, zero, endi narsaning o‘zi ham mavjud emas. Demak, mazmun muayyan shakldagina yashaydi, shaklsiz mazmun bo‘lmaganidek, mazmunsiz shakl ham mavjud emas”.²

Izzat Sulton ham bu to‘g‘risida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tgan: “Mazmunning yetakchi rol o‘ynashi badiiy asarda shaklning ahamiyati kamligini

ko‘rsatmaydi. Aksincha, faqat yuqori badiiy shaklda ifoda etilgan mazmunga o‘quvchiga ta‘sir ko‘rsata olishi mumkin. Badiiy asarda mazmun bilan shakl, bir qushning ikki qanotidek, ajralmas birlikda yashaydi. Shakl mazmunga tobe bo‘lgani holda, o‘zi ham nisbatan mustaqillik xususiyatiga ega. Bu mustaqillik, dastavval, shunda ko‘rinadiki, agar badiiy asarning shakli mukammal bo‘lmasa, uning mazmuniga putur yetadi: mazmun zarur ravshanlik, yorqinlik va ta‘sirchanlik fazilatlariga ega bo‘lolmaydi”.³

D. Quronov va Izzat Sulton tomonidan ilgari surilgan shakl va mazmun haqidagi qarashlar adabiyotshunoslik hamda umumfalsafiy tafakkurda muhim o‘rin tutadi. D. Quronov shakl va mazmuni umumfalsafiy kategoriyalar sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har qanday narsa yoki hodisa shakl (tashqi ko‘rinish) va mazmun (ichki mohiyat) birligidan iborat. Bu ikki kategoriya ajralmas birlikda mavjud bo‘lib, biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Shakl — mazmuni ifodalovchi vosita, mazmun esa aynan shakl orqali namoyon bo‘ladi. D. Quronovning “stul” misoli bu birlikni sodda va aniq tushuntiradi. Agar shakl buzilsa, mazmun ham yo‘qoladi.

Izzat Sulton esa masalaga ko‘proq badiiy-estetik nuqtai nazardan yondashadi. U quyidagi jihatlarni ta‘kidlaydi:

Mazmun yetakchi rol o‘ynaydi, ammo bu shaklning ahamiyatini kamaytirmaydi.

Shakl va mazmun “bir qushning ikki qanoti” kabi ajralmasdir.

Mukammal shakl bo‘lmasa, mazmun o‘z ta‘sir kuchini yo‘qotadi.

² D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent.2018, 136-b.

³ I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent.2005, 144-b.



Shakl nisbatan mustaqil bo‘lib, u mazmunni yanada ravshan va ta‘sirchan qiladi.

Har ikkala olim shakl va mazmunning ajralmas birlik ekanligini tan oladi.

Ikkalasi ham shaklsiz mazmun, mazmunsiz shakl bo‘lmasligini ta‘kidlaydi.

Mening fikrimcha, D.Quronov va Izzat Sulton qarashlari bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi. D.Quronov shakl va mazmunning falsafiy mohiyatini ochib bersa, I.Sulton ularning badiiy asardagi amaliy ahamiyatini chuqurlashtiradi. Ayniqsa, adabiyotda mazmunning yetakchiligi muhim bo‘lsa-da, shaklning mukammalligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki o‘quvchi asarni, avvalo, shakl orqali qabul qiladi, keyin esa mazmunni anglaydi. Shuning uchun, mazmun — g‘oya va mohiyat manbai, shakl — uning hayotga tatbiq etuvchi ifoda vositasi.

Demak, haqiqiy badiiy asar — bu shakl va mazmun uyg‘unligining mukammal natijasidir. Shakl va mazmun o‘rtasidagi muvozanat qanchalik mukammal bo‘lsa, asarning estetik va ta‘sirchanlik darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari, ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgan mavzulardan biri, syujet atamasi haqida ham bir qancha fikr-mulohazalar mavjud. Jumladan, I. Sulton shunday ta‘kidlaydi: “Asarda hikoya qilinayotgan voqea „sujet“ deb ataladi. (Sujet fransuzcha „predmet“ , ya’ni tasvirlanayotgan yoki bayon etilayotgan narsa demakdir.) Adabiyotning kichik janrlari (masalan, hikoya)da ko‘pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti tasvirlanadi. Yirik janrlarga mansub asarlar sujeti esa ko‘p tarmoqli bo‘ladi. Bunday holatda sujetning murakkabligi xususida gap boradi. Har ikki holda ham sujet asar mazmuniga asos bo‘lgan kichik yoki katta voqea bo‘lib qoladi. Sujet badiiy asarda tasvirlangan odamlarning o‘zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, bir-birlarini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari, umuman, kishilar orasidagi munosabatlar u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o‘sishi, tashkil topib borishidir”.⁴

⁴ I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent.2005, 108-b.



D. Quronov esa: “Modomiki biz «syujet» deganda epik va dramatik asarlarga xos syujetni nazarda tutar ekanmiz, unda syujetning asardagi «bir-biriga bog'liq voqealar tizimi» yoki «konkret holat, bitta voqeaning ichki rivoji» sifatida tushunilgani to'g'riroq boladi. Ayni chog'da, syujet tizimi davomida personajlar xarakterining ochilishi, shakllanishi ham bor narsa. Faqat bunga syujetning badiiy asardagi funksiyalaridan biri sifatida qarash lozim, uni syujetning mohiyati sifatida tushunish xatodir”.⁵

I.Sulton va D. Quronovning syujet haqidagi qarashlari badiiy asar tahlilida muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. I.Sulton syujetni asarda tasvirlanayotgan voqea sifatida talqin qiladi va uni insonlar o'rtasidagi munosabatlar, qarama-qarshiliklar hamda xarakterlarning shakllanish jarayoni bilan chambarchas bog'laydi. Bu yondashuvda syujet faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki personajlarning ichki dunyosi, ularning o'sishi va rivojini ham o'zida aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida qaraladi. Ayniqsa, yirik janrlarda syujetning ko'p tarmoqli bo'lishi uning hayotiylik darajasini oshiradi va asar mazmunini chuqurlashtiradi.

D. Quronov esa syujetga yanada aniqroq va torroq ta'rif beradi. U syujetni “bir-biriga bog'liq voqealar tizimi” yoki “bitta voqeaning ichki rivoji” sifatida tushuntiradi. D. Quronov fikricha, syujet davomida personaj xarakterining ochilishi muhim bo'lsa-da, bu syujetning mohiyati emas, balki uning funksiyalaridan biridir. Bu yondashuv ilmiy aniqlik bilan ajralib turadi, chunki u syujetni asosiy va ikkilamchi jihatlarga ajratib ko'rsatadi.

Mening o'ylashimcha, har ikki olimning qarashlari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, ular syujet tushunchasining turli qirralarini ochib beradi. I. Sulton syujetning mazmuniy va psixologik tomonlariga urg'u berib, uni badiiylik bilan bog'lasa, D. Quronov uning strukturaviy va nazariy asoslarini aniqlashtiradi. Shu sababli, syujetni to'liq anglash uchun uni ikki yo'nalishda — voqealar tizimi sifatida ham, personajlar va munosabatlar rivoji sifatida ham ko'rib chiqish maqsadga

⁵ D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent.2018, 166-b.



muvofigdir. Syujet — bu nafaqat voqealar zanjiri, balki badiiy asarning ichki harakat mexanizmi bo‘lib, u orqali xarakterlar ochiladi, g‘oya ifodalanadi va asarning badiiy qiymati yuzaga chiqadi. Shu jihatdan, I. Sulton va D. Quronov qarashlarining uyg‘unligi syujet nazariyasini yanada boyitadi va uni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Izzat Sulton o‘zbek adabiyot nazariyasining rivojiga katta hissa qo‘shgan nazariyotchi olimdir. Uning syujet, shakl va mazmun haqidagi qarashlari bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Boshqa nazariyotchilar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, olimning ilmiy-nazariy qarashlari adabiyotshunoslik doirasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning ilmiy qarashlari nafaqat milliy, balki umumjahon adabiyotshunosligi doirasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent. 2005.
2. Izzat Sulton. Adabiyot asoslari. – Toshkent.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. 2018.
5. D. Quronov., Z. Mamajonov., M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent. 2010
6. O‘zbek adabiyotshunosligi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent.